

IJTIMOIY ADOLAT ERKINLIK VA INDIVIDUAL MA'SULIYAT KONSEPSIYASI TAHLILI

Namangan davlat pedagogika instituti
*IJT-Du-25 guruh talabasi **Tilaboldiyeva Shodiyona***
*Ilmiy rahbar: **Habibjonova Nodira***

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy adolat, erkinlik va individual mas'uliyat tushunchalari. Tadqiqotda adolatning nazariy asoslari, erkinlikning falsafiy talqinlari hamda shaxsiy mas'uliyatning jamiyatdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Maqola ushbu uch konsepsiyaning o'zaro bog'liqligini ochib beradi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, erkinlik, individual mas'uliyat, tenglik, falsafa, siyosatshunoslik.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ понятий социальной справедливости, свободы и индивидуальной ответственности. Рассматриваются теоретические основы справедливости, философские интерпретации свободы и роль личной ответственности в обществе. В статье раскрывается взаимосвязь этих трёх концепций и их значение для общественного развития.

Ключевые слова: социальная справедливость, свобода, индивидуальная ответственность, равенство, философия, политология.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the concepts of social justice, freedom, and individual responsibility. It examines the theoretical foundations of justice, philosophical interpretations of freedom, and the role of personal responsibility in society. The article highlights the interconnection among these three concepts and explains their importance for societal development.

Keywords: social justice, freedom, individual responsibility, equality, philosophy, political science.

Kirish

Ijtimoiy adolat tushunchasi zamonaviy siyosatshunoslik va falsafada eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biridir. J. Roulzning adolat nazariyasi jamiyat tengligini ta'minlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi [1]. Erkinlik konsepsiyasi esa shaxs huquqlarining kafolati sifatida I. Berlin tomonidan "pozitiv" va "negativ" erkinlik shakllariga bo'lingan [3]. Individual mas'uliyat jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, A. Etzioni tomonidan jamoaviy mas'uliyat bilan uyg'unlikda izohlangan [7]. Ijtimoiy adolat, erkinlik va individual mas'uliyat masalalari bugungi globallashuv davrida nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shaxs sifatida men ushbu tushunchalarning nafaqat falsafiy, balki amaliy hayotdagi o'zni juda muhim ekanligini kuzataman. Jamiyatning barqaror rivojlanishi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki undagi adolat tamoyillarining qay darajada ta'minlanganligi, fuqarolarning erkinlik darajasi va albatta, shaxslarning o'z burchi hamda javobgarligini qanchalik his qilishi bilan belgilanadi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, adolat va erkinlik bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir, biroq ular individual mas'uliyat bo'lmasa, o'zining amaliy kuchini yo'qotadi. Menimcha, bugungi kunda aynan mas'uliyat omili jamiyatning eng zaif nuqtalaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki istalgan ijtimoiy tizim shaxsning ongli, irodali va mas'uliyatli harakati bilan bardavom bo'ladi. Shaxs erkin bo'lishi uchun uning imkoniyatlari keng bo'lishi kerak, biroq bu erkinlik boshqalarga zarar bermasligi va ijtimoiy tartibni buzmasligi uchun mas'uliyat bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Shu bois ushbu maqolada men ijtimoiy adolat, erkinlik va individual mas'uliyatning nazariy asoslarini tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritishni maqsad qildim. Ushbu yondashuv menga mavzuga chuqurroq kirib borish, shaxsiy kuzatuvlarimni ilmiy qarashlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda falsafiy-konseptual tahlil usuli qo'llanildi. Asosiy nazariy yondashuvlar klassik va zamonaviy adolat, erkinlik hamda mas'uliyat nazariyalari tahliliga asoslanadi. Tadqiqot manbalari sifatida Roulz [1], Sen [2], Berlin [3], Nozik [4] va Sandel [6] MacIntyre [5] Etzioni [7] Cohen [8] Taylor [9] Rawls [10] ning ishlari tanlab olindi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda men asosan falsafiy-konseptual tahlil, qiyosiy yondashuv va nazariy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalandim. Mavzuning murakkab va ko'p qirrali ekanligini inobatga olgan holda, men ijtimoiy adolat, erkinlik va individual mas'uliyatning turli maktablarga mansub olimlar tomonidan talqin etilgan jihatlarini solishtirishni maqsadga muvofiq deb bildim. Shuningdek, tadqiqot jarayonida J. Roulz, A. Sen, I. Berlin, R. Nozik, M. Sandel kabi yetakchi nazariyotchilarning konseptual qarashlari asosiy ilmiy tayanch bo'ldi. Men ushbu manbalarni tahlil qilish orqali mavzudagi asosiy muammolarni tushuntirishga, shuningdek, ularning zamonaviy jamiyatdagi qo'llanish imkoniyatlarini baholashga harakat qildim. Metod sifatida men normativ tahlildan ham foydalandim — ya'ni, “adolat qanday bo'lishi kerak?”, “erkinlikning qaysi shakli jamiyat uchun maqbul?”, “shaxs mas'uliyatining chegarasi qayerda tugaydi?” kabi savollar atrofida o'z ilmiy yondashuvimni shakllantirdim. Bu yondashuv menga nazariy model yaratish va konsepsiyalar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, men zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni kuzatish, ulardagi adolat va mas'uliyat muammolarini real holatda baholash orqali mavzuga amaliy nuqtai nazardan yondashdim. Shu tariqa, tadqiqotda nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlandi.

Natijalar

Tahlil natijalari quyidagi jihatlarni ko'rsatdi:

1. Ijtimoiy adolat – teng imkoniyat, adolatli taqsimot va jamiyatdagi resurslarning oqilona boshqarilishini anglatadi. Bu Roulzning “adolat – tenglik va erkinlikning uyg'unlashgan shakli” degan qarashida yaqqol aks etadi [1].

2. Erkinlik – shaxsning o'zini namoyon etish, tanlov qilish va siyosiy jarayonda ishtirok etish imkonidir. Berlin tomonidan erkinlikning ikki turi: cheklovlardan holi bo'lish (negativ), hamda o'z imkoniyatini ro'yobga chiqarish (pozitiv) sifatida farqlangan [3].

3. Individual mas'uliyat – shaxsning o'z xatti-harakatlari oqibatini anglash va jamiyat oldida javobgar bo'lish tamoyilidir. Etzioni bu mas'uliyatni shaxsiy huquqlar bilan muvofiqlashtirish zarurligini ta'kidlaydi [7]. Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar asosida men quyidagi natijalarga keldim. Avvalo, ijtimoiy adolat konsepsiyasi jamiyat barqarorligining asosiy mezonini ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Menimcha, adolat tamoyillari nafaqat resurslar taqsimotida, balki imkoniyatlar tengligida ham o'z ifodasini topishi zarur. Roulz tomonidan ilgari surilgan “adolat — teng imkoniyatlar uchun qulay sharoit yaratish” g'oyasi bugungi kun jamiyatlari uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda [10]. Ikkinchidan, tahlil shuni ko'rsatdiki, erkinlikning faqat cheklovlardan holi bo'lish sifatida talqin qilinishi yetarli emas. Men shaxs erkinligini imkoniyatlarni amalga oshirish, o'z qobiliyatlarini namoyon etish va jamiyat hayotida faol ishtirok eta olish darajasi bilan o'lchash tarafdoriman. Erkinlikning mana shu mazmuni uni bo'shliq emas, balki maqsadli harakatlar uchun imkoniyat sifatida talqin qilishga imkon beradi. Uchinchidan, men uchun eng muhim natija shuki, individual mas'uliyat — ijtimoiy adolat va erkinlik o'rtasidagi asosiy bog'lovchi bo'g'indir. Agar jamiyatda mas'uliyat hissi past bo'lsa, eng mukammal adolat tizimi ham o'z samarasini bermaydi. Mas'uliyatsiz erkinlik esa tartibsizlik va beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mas'uliyat — huquqlarning tabiiy davomidir. Yakuniy natija sifatida aytishim mumkinki, ushbu uch konsepsiya — adolat, erkinlik va mas'uliyat — bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro bog'langan tamoyillar

bo'lib, ular har biri uzviy uyg'unlashgan holda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy poydevorini mustahkamlaydi.

Muhokama

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, ijtimoiy adolat va erkinlikning o'zaro uyg'unlashuvi individual mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq. Nozikning libertarian yondashuvi erkinlikni asosiy qadriyat deb biladi, ammo bu yondashuv ijtimoiy tenglikning pasayishiga olib kelishi mumkin [4]. Aksincha, Sen ijtimoiy adolatni imkoniyatlar tengligi orqali talqin qiladi va adolatni baholashda amaliy natijalarni muhim deb hisoblaydi [2]. Shuning uchun adolat, erkinlik va mas'uliyatni alohida tushunish emas, balki ularni bir butun tizim sifatida idrok qilish maqsadga muvofiq. Olib borilgan

tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy adolat, erkinlik va individual mas'uliyat konsepsiyalari o'zaro uzviy bog'liqlikka ega bo'lib, ularning har birini alohida holda tushuntirish to'liq ilmiy tasavvur bera olmaydi. Menimcha, zamonaviy jamiyatlarda adolatni ta'minlash uchun faqat tenglik yoki faqat erkinlik tamoyiliga tayanish yetarli emas. Aksincha, ushbu tamoyillarni mas'uliyat bilan muvozanatlashtirish zarur. Nozikning libertarian yondashuvi erkinlikni mutlaq qadriyat sifatida ko'rsatgani bilan, amalda bu yondashuv ijtimoiy tenglikning zaiflashuviga olib kelishi mumkin [4]. Men bu fikrning bir tomonlama ekanligini ko'raman, chunki jamiyatda faqat erkinlik ustuvor bo'lsa, ijtimoiy tafovutlar chuqurlashadi. Roulzning adolat modeli esa buni qisqa muddatda yumshatishi mumkin, biroq u ham individual mas'uliyat darajasi past bo'lgan jamiyatlarda to'liq ishlamaydi [1]. Shu jihatdan, menga Eng kattagina xulosa shuki: erkinlik mas'uliyat bilan mustahkamlanmaguncha adolat o'z amaliy shaklini topmaydi. Bu uch tushunchani uyg'unlashtirgan yondashuvgina jamiyatda real barqarorlik va ishonchni ta'minlashi mumkin. Bundan tashqari, men zamonaviy jamiyatlarda individning ongli ishtiroki va fuqarolik mas'uliyati sust bo'lsa, davlatning adolat yoki erkinlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari ham samaradorligini yo'qotishini kuzataman. Shaxsiy mas'uliyatning kuchayishi esa jamiyatning o'zini-o'zi boshqarish salohiyatini oshiradi, bu esa demokratik rivojlanishning ajralmas shartidir. Shu sababli, men ijtimoiy adolat, erkinlik va mas'uliyatning integratsiyalashgan modelini eng maqbul yondashuv deb hisoblayman — bu modelda har uch konsepsiya bir-biri bilan dialektik birlikda mavjud bo'ladi.

Xulosa

Ushbu maqola ijtimoiy adolat, erkinlik va individual mas'uliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti ushbu uch tushunchaning uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi. Adolat – erkinlikni tartiblaydi, erkinlik – shaxs rivojlanishini ta'minlaydi, individual mas'uliyat esa ular o'rtasida mustahkam muvozanat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (raqamlangan)

1. Rawls, J. A Theory of Justice. Harvard University Press, 1971.
2. Sen, A. The Idea of Justice. Harvard University Press, 2009.
3. Berlin, I. Two Concepts of Liberty. Oxford University Press, 1969.
4. Nozick, R. Anarchy, State, and Utopia. Basic Books, 1974.
5. MacIntyre, A. After Virtue. University of Notre Dame Press, 2007.
6. Sandel, M. Justice: What's the Right Thing to Do? Farrar, Straus and Giroux, 2009.
7. Etzioni, A. The Spirit of Community: Rights, Responsibilities and the Communitarian Agenda. Crown Publishers, 1993.
8. Cohen, G. A. Rescuing Justice and Equality. Harvard University Press, 2008.
9. Taylor, C. Multiculturalism and "The Politics of Recognition". Princeton University Press, 1992.
10. Rawls, J. Justice as Fairness: A Restatement. Harvard University Press, 2001.